kengash.gov.uz VII-3-019-7-101-K/24

XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-019-7-101-K/24 Pastdarg‘om tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 20-iyundagi VI-112-72-7-101-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-162-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024-yil 21-avgustdagi (03/1-1308-son) topshiriq xati hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 24-oktabrdagi VI-104-105-7-0-K/24-sonli qarori bilan “Davlat mulki obyektlarini sotishdan olingan daromadlar” viloyat hamda tuman (shahar) mahalliy budjetlari o‘rtasida teng taqsimlanishi belgilanganligi munosabati bilan hamda bu borada Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 1-noyabrdagi 02/01-32/283-sonli ko‘rsatma xatlari ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashining uchinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024-yil 21-avgustdagi (03/1-1308-son) topshiriq xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsadlari ijrosini ta’minlash, iqtisodiyotning xususiy sektor rivojlangan tarmoqlarida davlat ishtirokini keskin kamaytirish, xususiy sektor faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay raqobat muhitini yaratish hamda xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 20-iyundagi VI-112-72-7-101-K/24-sonli qarorining 1-ilovasi ya’ni mahalliy

budjet daromadlari (Davlat mulki obyektlarini sotishdan olinadigan daromadlari) 500,0 mln. so‘mga oshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 20-iyundagi VI-112-72-7-101-K/24-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Aliyev va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Pardayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi: **Sh.Raxmanov**

Kengash raisi

RAXMANOV SHERZOD SHUXRATOVICH

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-7-101-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-7-101-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani mahalliy budjetining daromadlarning 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

TR	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	**182 472 900**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	48 960 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	12 665 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	23 049 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	36 190 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 810 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	17 556 000
7	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	300 000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 308 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 380 900
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	10 744 000
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	10 820 000
12	Yig‘imlar	5 020 000

14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	170 000
15	Davlat mulki obyektlarini sotishlan olinadigan daromadlar	500 000